



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-dekabr 2018 yil


RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **12,2 trln. so'm**, o'sish sur'ati **1,6 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **96,0 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **105,7 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 12 210,7 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,6%ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar –11 844,0 mlrd.so'mni (101,6%), o'rmon xo'jaligi –210,3 mlrd.so'mni (103,0 %), baliq xo'jaligi –156,5 mlrd.so'mni (101,3 %) tashkil qildi.

1-diagramma


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd. so'm)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Forish (104,0 foiz), Zarbdor (103,2 foiz), va Baxmal (102,7 foiz) tumanlarida kuzatildi. Do'stlik (100,0 foiz), Arnasoy (100,0 foiz), Paxtakor (100,1 foiz) va Zafarobod tumanlarida (100,3 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

2-diagramma

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Jizzax viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Baxmal tumanining ulushi 14,8 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, G'allaorol va Zomin tumanlari mos ravishda 13,9 foiz va 10,7 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiobod tumani (3,6 foiz) va Jizzax shahrida (3,1 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 96,0 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 105,7 foizni tashkil qildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 72,8 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 23,0 %i – fermer xo'jaliklariga, 4,2 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

3-diagramma

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, %da



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 539,7 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 96,0 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,2 %ni tashkil qildi.



1-jadval


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	535,5	95,9	483,7	95,4	33,3	99,9	18,6	100,6
Kartoshka	61,7	91,7	8,7	53,7	52,9	103,6	0,1	107,0
Sabzavotlar	390,4	98,0	108,0	76,7	279,1	109,6	3,4	103,3
Poliz	228,9	84,7	94,6	64,5	131,2	108,7	3,1	109,1
Meva va rezavorlar	79,5	91,4	23,8	69,5	54,3	105,5	1,4	107,4
Uzum	30,5	103,7	12,4	93,9	18,0	111,3	0,1	458,3

Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida 478 816 tonna (94,9 foiz) boshqoli don ekinlari, shundan 419 919 tonna (94,3 foiz) bug'doy, 390 401 tonna (98,0 foiz) sabzavotlar, 79 457 tonna (91,4 foiz) meva va rezavorlar, 61 679 tonna (91,7 foiz) kartoshka, 228 853 tonna (84,7 foiz) poliz, 30 466 tonna (103,7 foiz) uzum mahsulotlari yig'ib olindi.

4-diagramma


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi %da



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 85,8 foizi, sabzavotlarning 71,5 foizi, meva va rezavorlarning 68,3 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 90,3 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)




Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)



Poliz (ming t)



Mevalar va rezavorlar (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik



2018 yilning yanvar-dekabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7 240,0 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,7 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 59,3 %ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 212,8 ming tonna go'sht (4,7 %ga), 594,3 ming tonna sut (5,0 %ga), 257,9 mln.dona tuxum (8,4 %ga), 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan ko'p ishlab chiqarildi, 3,9 ming tonna jun esa (3,7 %ga) kam ishlab chiqarildi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	212,8	104,7	2,2	164,3	209,5	104,3	1,2	103,9
Sut, ming t	594,3	105,0	6,6	97,9	586,1	104,9	1,7	179,1
Tuxum, mln. dona.	257,9	108,4	4,6	86,6	176,7	105,1	76,7	118,5
Jun, ming t	3,9	96,3	0,3	114,3	3,4	90,1	0,3	342,1
Qorako'l, ming dona.	2,5	619,6	2,2	3047,2	-	-	0,3	100,9
Pilla, ming t	0,6	149,1	0,6	146,2	-	-	0,03	228,2

6-diagramma

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, %da




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 98,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 98,6 %i, tuxumning 68,5 %i, junning 86,2 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l terining 86,6 %i esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.


7-diagramma

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming t)



Sut (ming t)



Tuxum (mln. dona)



Pilla (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 884,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 249,4 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 057,7 ming boshga, parrandalar – 3 338,3 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 4,3 ming boshga (0,5 %ga), shu jumladan sigirlar – 12,7 ming boshga (5,4 %ga), qo'y va echkilar – 50,8 ming boshga (2,5 %ga), parrandalar – 382,2 ming boshga (12,9 %ga) ko'paydi.

3-jadval


2019 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	884,7	100,5	34,7	110,6	837,2	100,1	12,8	100,3
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	249,4	105,4	9,7	105,3	237,3	105,4	2,3	104,4
Qo'y va echkilar	2057,7	102,5	305,0	116,1	1603,5	100,5	149,2	100,4
Parrandalar	3338,3	112,9	317,6	101,1	1985,7	102,9	1035,0	145,5


2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,8 %i fermer xo'jaliklariga, 77,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 9,5 %i fermer xo'jaliklariga, 59,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 31,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shundan, sigirlar (ming bosh)






Qo'y va echkilar (ming bosh)






Parrandalar (ming bosh)



Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

• 71-230-83-49
• 71-230-83-53